

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.D.Dehqonov	
Bolalarni qo'g'irchoq teatri orqali tarbiyalashning o'ziga xos ahamiyati.....	194
X.M.Xoshimxonov	
Xoja Ahmad Yassaviyning irfoniy – falsafiy qarashlari.....	198
M.A.Muxiddinova	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining jamoaviy ijodiy, kasbiy va texnik tayyorgarligining pedagogik xususiyatlari.....	204
Y.A.Saidova	
O'smirlarda ishonch hissi va uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	208
Sh.A.Mamajonov, X.M.Jo'rayev	
Bo'lajak kimyo o'qituvchilarida ekologik kompetentlikni shakllantirish.....	213
M.M.Azizov	
Skandinavcha yurish sport-sog'lomlashtirish dasturlarini optimallashtirishning asosiy vositasi sifatida	218
D.V.Vohidova	
Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniy ustoz-shogird sifatleri haqida.....	223
X.X.Raxmatova	
Murosa falsafasiga doir tushunchalarning tasavvufiy mohiyati	227
X.X.Raxmatova	
Ma'rifatli jamiyat qurishda Xoja Ahror Valiy murosaga oid qarashlarining ahamiyati.....	232
O.L.Berdiyev	
Abu Ali Ibn Sino va Nosiruddin Tusiyning falsafiy qarashlari	237
D.D.G'ulomov	
Abdulla Qodiriy ijodida retrospektiv syujet ("Mehrobdan chayon" romani misolida)	243
D.I.Gulamova	
Interpretation of euphemisms used in social life	246
M.K.Juliyev, L.A.Gafurova, M.D.Xolmurodova, B.E.Abdikairov	
O'zbekistonda tuproq eroziyasining sabablari va eroziyaga tasir qiluvchi omillar	250
B.O.Komilova, M.R.Toxirova	
Yuqori sinf o'quvchilarining aqliy faoliyatiga jismoniy mashqlarning ta'siri	254
B.O.Komilova	
Ichak turli bo'limlaridagi fermentlar faolligining ayrim gormonlar ta'sirida o'zgarishi.....	257
Z.M.Otaxonova, J.M.Otajonov	
Talabalarni xalq pedagogikasi asosida milliy ruhda tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari	260
A.I.Mirzoyev, M.A.Mamasoliyeva, J.M.Turdaliyev, B.D.Raxmonov, Sh.Sh.Turg'unboev, I.A.Xudoynazarov	
Navoiy viloyati sho'rlangan tuproq tarkibidagi tuzlarni yuvish uchun kimyoviy melioratsiya usulidan foydalanish istiqbollari.....	263
Sh.K.Abduraxmonov	
Chaqiriqqacha harbiy ta'lim kursantlarida kasbiy madaniyatni rivojlantirish metodikasi va pedagogik shartlari.....	270
U.R.Radjabov, K.B.Xakimdjanova	
Maktabgacha ta'lim muassasi tarbiyalanuvchilarini harakatli o'yinlar orqali bolalar psixologiyasini va nutqini rivojlantirish usulublari.....	275
O.Ortiqov	
Mustaqillik davrida ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar tahlili (1990-1994 yillar).....	279
A.R.Jo'rayev	
Minnatdorchilik bildirish nutqiy janrining lingvistik xususiyatlari.....	283
M.C.Курбоналиева	
Муаррифии чанд тазираи умумии шоирони асри xviii	286
X.A.Lutfullayeva	
Problems of developing self-educational skills of students	293
P.Абдуллаев	
Татабуъоти Амир Муиззй ба қасидаҳои Унсурии Балхӣ	298
	XOTIRA
Ustoz Muxammadjon Qoraboyevning yorqin xotirasi	304

**XOJA ABDULXOLIQ G'JUDUVONIYTNING USTOZ-SHOGIRD SIFATLARI HAQIDA
О КАЧЕСТВАХ НАСТАВНИКА-УЧЕНИКА ХОДЖИ АБДУЛХОЛИКА ГИЖДУВАНИ
ABOUT THE QUALITIES OF KHOJA ABDULKHOLIQ GIJDUVANI'S STUDENTS**

Vohidova Dilshoda Vohid qizi¹

¹Buxoro davlat universiteti, Islom tarixi va manbahunosligi falsafa kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Xoja Abdulxoliq G'jjuduvoniyning ustoz-shogird sifatleri haqidagi ibratli o'g'itlari keltirilib, ustoz-shogird munosabatlari qay tartibda bo'lishi, ustozning sifatleri, shogirdning hayotda munosib o'rinni egallashida birinchi navbatda ustozning o'rni beqiyos ekanligi falsafiy tahlil etiladi. Ustozning ko'rsatmalariga sabr-toqat bilan amal qilgan shogird umrini, vaqtini foydali o'tkazib, jamiyat uchun qadri inson va bilimli insonga aylanishi mumkinligi hayotiy misollar orqali izohlanadi. O'z navbatida yosh avlodning jismi-yu ruhiyati aziz ustozga ishonib topshirilar ekan, ustozlar ham bunday ulkan mas'uliyatga jiddiy yondashishlari kerakligi tushuntiriladi. Allomaning ustoz-shogird munosabatlari qadrlash borasidagi o'g'itlari kelajak avlod uchun ham o'rganishi lozim bo'lgan muhim ibrat maktabi ekanligi ushbu maqolada o'z aksini topgan.

Аннотация

В этой статье представлены великие учения Ходжи Абдулхалика Гиждувани о качествах наставника-ученика, а также о порядке взаимоотношений мастера и ученика, качествах наставника, а также о том, что роль наставника несравненна в философски анализируется достойного места студента в жизни. На жизненных примерах объясняется, что ученик, терпеливо выполняющий указания учителя, может провести свою жизнь и время с пользой и стать ценным и образованным человеком для общества. В свою очередь поясняется, что, поскольку тело и душа молодого поколения вверены любимому учителю, учителя также должны серьезно отнестись к такой огромной ответственности. В данной статье отражено, что направление ученого о ценности отношений учитель-ученик является важным уроком, который следует усвоить будущему поколению.

Abstract

In this article, the great teachings of Khoja Abdulkhalig Gijduvani about the qualities of a master-disciple are presented, and the order of the master-disciple relationship, the qualities of a master, and the fact that the role of a master is incomparable in a student's rightful place in life are analyzed philosophically. It is explained through life examples that a student who patiently follows the teacher's instructions can spend his life and time usefully and become a valuable person and an educated person for the society. In turn, it is explained that since the body and soul of the young generation are entrusted to the beloved teacher, teachers should also take such a huge responsibility seriously. It is reflected in this article that Alloma's teachings on valuing teacher-student relationships are an important lesson that should be learned by the future generation.

Kalit so'zlar: tasavvuf, tariqat, shayx, murshid, murid, ilm, ustoz-shogird munosabatlari.

Ключевые слова: Суфизм, секта, шейх, мушид, мюрид, знание, отношения учитель-ученик.

Key words: Sufism, sect, sheikh, murshid, murid, knowledge, teacher-disciple relationship.

KIRISH

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevni: "Biz ustozni otaday ulug' deb bilgan, doimo ardoqlagan ma'rifatparvar xalqning vakillarimiz. Men ham o'qituvchi, muallim deganda o'zim uchun eng aziz va hurmatli bo'lgan, ziyoli va zamonaviy, samimiy va mehribon insonlarni tasavvur qilaman. Chunki hammamizga ham shu muallim saboq va ta'lim berib, mehribon ota-onalarimiz qatori tarbiyalagan..." - deya e'tirof etishi bejizga emas.[1] Darhaqiqat, ilmida mohir bulgan ustozlarni ardoqlangan yurtda yuksalish bo'ladi, munosib ilmi shogirdlar yetishib chiqadi. Aksincha, ustozlar behurmat qilingan yurt kelajak inqirozga yuz tutadi, johillik avj oladi. Zero, rivojlanish va tinchlikning asosiy posbonlari ustozlardir. Ular tarbiyalagan shogirdlarning ma'naviy qurollari har qanday zamonaviy texnika va yot mafkuradan ta'siri kuchli bo'lib, yurt ravnaqini munosib mustahkamlab himoya qiladi. Shuning uchun ustoz-shogird munosabatlari har bir zamon va makonda e'tibor markazida bo'lgan.

Ustoz-shogird munosabatlarisiz biror sohaning taraqqiyoti hanuzgacha uchramaganligi, bu munosabatni qadrlashimiz, e'zozlashimiz shart ekanligini Xojagon tariqati asoschisi Xoja Abdulxoliq G'jjuduvoniy o'z asarlarida juda chiroyli o'xshatishlar bilan tushuntirib berganlar. Xoja Abdulxoliq G'jjuduvoniy ustoz-shogirdlik munosabatlari muqaddas ekanligini tasavvufiy nuqtai

nazardan asosli ta'riflab beradilarki, biz uchun bu sharhlar ustoz-shogird munosabati mohiyatini tushunishimizda, nechog'li qadrli yaqinlik tuyg'usi ekanligini anglab yetishimizda metodologiya bo'la oladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni ustoz va shogirdning sifatlari qanday bo'lishi kerakligini nazariy jihatdan tahlil etib tushuntirib berish bilan bir qatorda, o'zlari ham ustozlari Xoja Yusuf Hamadoniya ehtimol ko'rsatib, u kishi haqida asarlar yozganlar. Bu haqida zamonamiz ustoz, Buxorodagi Naqshbandiya maktabi asoschisi, professor Gulchehra Navro'zova monografiyalarida juda ham asosli va ibratli qilib yoritib berganlar. [2,72]

Olima Oygul Sharipova ham "Abdulxoliq G'ijduvoni" nomli monografiyalarida ustoz-shogirdlik munosabatlariga o'z qarashlarini bildirganlar. "Xojai Jahon aytadiki, xudojo'y shaxs, haqshunoslik yo'lga tushgan shogird, muridlarning ma'naviy ruhoni ustoz-murshidini o'z otasidan ham ko'proq hurmat qilishi lozim. Chunki murshidlik lavozimi, ruhiy murabbiy otalik mavqeidan yuqoridir, zeroki murabbiy so'fiyga haqqa yaqinlashish yo'lini ko'rsatadi...".[3,28] Ya'ni otamiz bizni yer yuzida borligimiz, jismimiz sababchisi bo'lishsa, ustoz esa yer yuzida qanday yashashimiz, ruhiy salomatligimiz, shariat amallarini anglashimiz va ilm yo'lida sa'y-harakat qilib, Alloh buyurganidek mo'min banda bo'lishimizga yordam beradi.

Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni Xojagon tariqati maktabidagi ta'lim-tarbiya usuli va yozgan qitoblaridagi g'oyalarning barchasi payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning sunnatlariga muvofiq bo'lib, ustoz-shogird munosabatlarini yoritib berishlarida ham ushbu uslubga amal qilganlar.

Jumladan, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar xazinasida saqlanayotgan, muallifi noma'lum, o'n uchta bobni o'z ichiga olgan "Az guftori Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni" ya'ni "Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni aytganlaridan" risolasining bir qancha boblarida ustoz-shogird munosabatlari qanday bo'lishi lozimligi yoritib berilgan. Maqolada birgina ana shu risoladagi mavzuimizga doir keltirilgan boblar g'oyalari falsafiy tahlil etildi.

"Az guftori Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni" risolasining ikkinchi bobida muridni, ya'ni shogirdning sifatlari haqida so'z boradi: "Murid o'z shayxining talabi bilan mashg'ul bo'lishi, bu azizning xizmatida mahkam turishi, uning tasarrufiga o'zini taslim qilishi zarur... Har muridkim shayxning nazaridan qolsa, uning ishlari shunday buziladiki, boshqa hech qanday shayx uning ishini sozlay olmaydi, u go'yoki palag'da bo'lgan tuxumga o'xshab qoladi. Agar olamning barcha tovuqlari to'planib bu tuxumni sozlamoqchi bo'lsalar ham, sozlay olmaydilar va undan hech qanday jo'ja chiqmaydi". [4,113]

Shu o'rinda shayx va murid so'zlariga izoh beramiz. Shayx – tasavvufda kamolotga yetgan, shogirdlarni tarbiyalash ruxsatini olgan ustozga nisbatan aytiladi. Murid – tasavvufiy tushuncha bo'lib, tariqat yo'lga kirmoqchi bo'lgan tolibga nisbatan ishlatiladi. Xojai Jahonning bu so'zlaridan ma'lum bo'ladiki, ustoz shogirdga nimani o'rganishni buyursa, shogird shu ish bilan shug'ullanishi lozim. Chunki ustoz shogirdni amalga oshirishi zarur bo'lgan ishlarning mashaqqatlaridan allaqachon xabardor. Mashaqqatlardagi har qanday voqelikning yechimi ustozga ma'lum. Ustoz tajribasidan kelib chiqib shogirdga to'g'ri yo'nalish beradi. Buning uchun shogird ham ilm o'rganish bilan bir qatorda ustozining xizmatida bo'lish orqali o'zida hayotiylik, insoniylik fazilatlarini ham shakllantirishi kerak. Jismiy ruhini ustoz ixtiyoriga topshirib, boshqa ta'sirlarga chalg'imasligi shart. Agar shogird berilgan ko'rsatmalarga amal qilmasa, shubhalansa, ustozining ko'ngliga ozor beradi va nazaridan qoladi. Natijada shu paytgacha qilgan amallari, o'rgangan ilmu hunari foyda bermaydi. Shogird turli xil muammolar girdobida aylanib, samarasiz harakat qiladi. Bu holatdan chiqishni istab boshqa ustozdan yordam so'ragan taqdirda ham urinishlari be'samar bo'ladi. Chunki ustozni norozi qilgan shogird ham ilmu-hunar o'rganishning qobiliyati, mehnati, mashaqqati, sabru qanoati hali yetarlicha shakllanmagan bo'ladi. Agar shogirdlik xislatlari to'la shakllanganda edi, ustozining nazaridan qolmas, "palag'da bo'lgan tuxum"ga o'xshamas edi. Agar shogirdni ko'chma ma'noda "tuxum"ga qiyoslaydigan bo'lsak, dunyoda tuxumlar juda ko'pdir. Bu tuxumlarning ko'proq qismidan iste'mol uchun foydalanilsa, ozroq qismidan jo'jalar chiqadi va kelajak shu jo'jalar sharofati bilan davom etadi. Jo'ja chiqishi lozim bo'lgan tuxumni tovuq parvarishlamay qo'ydimi, endi boshqa tovuqlarning harakati besamardir. Chunki vaqt o'tdi, endi bu tuxum hattoki iste'molga

ham yaroqsiz, keraksiz chiqindiga aylanadi. Demak, ustozini, uning aytgan so'zlarini qadriga yetmaslik oqibati shogirdni jamiyat uchun keraksiz insonga aylantiradi.

Risolaning uchinchi bobi shogirdning ustozga muhtojligi haqida bo'lib quyidagi ibratli so'zlar keltiriladi: "Bilginki, muridning shayxga muhtojligi ko'pdir va hech murid shayxsiz bu yo'ldan yurolmaydi. Chunonchi, Muso alayhis salom payg'ambarligiga qaramasdan, o'n yillar davomida Shu'ayb alayhis salomning xizmatlarini qildilar. Shundagina haq bilan so'zlashish sharafiga muyassar bo'ldilar.

Shayx – Alloh ularning ruhlarini muqaddas qilsin, buyuradilar: "Muridning komili mukammal shayxga muxtoji ko'pdir." Bu yo'lda manzillar va shubhali ishlar ko'p va dovonlar son-sanoqsizdir. Kimki bu yo'lga shayxsiz qadam qo'ysa, shubhalar to'riga ilinib, halokatga mahkum bo'ladi".[4,114]

Risoladagi bu bobda shogirdning ustozga muhtojligi Muso payg'ambarimiz hayotlari misolida izoh beriladi. Muso payg'ambarimiz yigitlik chog'larida qiyin sinovlarga duch kelib, fir'avn zulmidan qo'rqib, yaqinlari va qavmidan ayriliqda qochib, och-nahor, g'arib-bechora ahvolda yurganlari, hayotlari og'ir o'tayotgan bir davrda ustozlari Shu'ayb payg'ambarimizni uchratadilar. Va u kishining xizmatlarida 10 yil bo'lib, ustozlaridan ilm o'rganib, Alloh bilan gaplashish baxtiga muyassar bo'ladilar va zulmkor fir'avn ustidan g'alaba qozonib, yaqinlari va qavmlariga ko'p yaxshiliklar qilib, Haqni tanish ilmiga chorlaydilar. (Bu voqealarning batafsil tafsiloti Qur'oni Karimning "Qasos" surasida yoritilgan..D.V.)

Demak, bu voqeadan o'zimiz uchun ibrat olib, shogird doimo qalb ko'zini imon nuri bilan yoritadigan ilmu tafakkurli, komil ustozga muhtojligini angalaymiz. Chunki ustozsiz hech bir ilmni ham, kasbu-hunarni ham o'rganib bo'lmaydi. Ilmu kasb-hunar egallashning sir-asrorlari shu darajada ko'pki, samarali o'rganishning yo'llari, tizimli qoidalari, foydali-foydasiz xususiyati faqatgina shu bosqichlarni bosib o'tgan ustozgagina ma'lumdir. Zero, ustoz shogirdiga to'g'ri va aniq yo'l-yo'riq ko'rsatib, har qanday tushunmovchiliklarni osongina bartaraf eta oladi. Natijada shogird o'z maqsadiga erishib, jamiyat uchun komil inson va foydali kadrqa aylanib, keyinchalik mohir ustozlik maqomiga erishadi. Agar shogird ustozining yordamisiz, mustaqil ilm, kasb-hunarni o'rganaman desa, turli xil xatoliklarga yo'l qo'yib, duch kelgan shubhali gaplarga amal qilib, oxirida bilimsiz, malakasiz mutaxassisga aylanib qoladi. Hayotda mazmunli o'tkazishi zarur bo'lgan vaqtni bekorga sarflab, umrini zoe ketkazadi. Ayniqsa tasavvuf ilmi botin ilmi bo'lgani uchun uning maqomlaridan o'tib, holatini ilohiy bo'lishi komili mukammal ustozsiz amalga oshmaydi.

Ushbu risolaning beshinchi bobi "Ustozning martabalari va sifatleri haqida" nomlanib, ustoz qaysi tartibda o'rgatsa, shu tartibda o'rganish, shogird barcha holatda ham ustozga muhtojligi, ustozning xizmati uchun riyozat chekish va xizmatda nuqsonga yo'l qo'ymaslik borasida shogirdning farzlari haqida so'z boradi: "Bilginki, bu yo'lning har bir yo'lovchisiga – Alloh ularga muvaffaqiyatlar ato qilsin – haqiqiy yo'l boshchiga ergashmay chora yo'q, chunki bu yo'lning manzili maqomlarida dovon qiyinchiliklar ko'pdir. Yo'lni biluvchi shayxsiz bu yo'ldan yurib bo'lmaydi. Haq ta'olo Xizr alayhis salomni shayx maqomida, Muso alayhissalomni esa muridlik maqomida tutib, ilmi ladunniy ta'limini berdi.

Rasululloh aytadilar: "Ash-shayxu fi-qavmihi k-annabiy fi ummatihi" ("O'z qavmi ichidagi shayx ummat ichidagi payg'ambar kabitir"). Shayx – Alloh ularning ruhlarini muqaddas qilsin aytadilar: "Rosulullohning hadislariga muvofiq, murid barcha holatda ham pirga muhtojdir". (4,115)

Ushbu bobda Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni shogirdni yo'lovchiga, ustozni esa yo'l boshchiga qiyos etadi. Bilamizki, yo'l mashaqqati juda qiyindir, ayniqsa bu yo'ldan oldin yurmagan bo'lsangiz, manzilni aniq bilmasangiz, adashish oson. Hattoki manzilga yeta olmaslik ham mumkin. Ayniqsa, bu yo'l Haqqa yetish, ilm yo'li bo'lsa insondan anchagina zahmat chekishni talab etadi. Agar biz uchun yangi, noma'lum bo'lgan manzil yo'lini yo'l boshchi-ustoz bilan bosib o'tsaq, anchagina oson va tezroq bosib o'tamiz. Chunki birinchidan, "adashmadimmikan" degan shubhalardan holi bo'lib, ixtiyorizni yo'l boshchiga topshirasiz, uning aytganlarini bajarasiz, yo'lda zerikib qolmayasiz, sababi hamsuhbatingiz, yangi narsalarga duch kelganingizda so'rab bilguvchingiz doimo yoningizda bo'ladi. Mohir yo'l boshchining aytganlariga amal qilsangiz, manzilga sog'-salomat, tezroq yetib borib, maqsadingizga erishasiz.

Bu bobda Xizr alayhissalom ustoz sifatidagi, Muso payg'ambarimiz shogirdlik maqomidagi ibratli qissa keltiriladi. Xizr alayhis salom va Muso payg'ambarimiz haqlaridagi qissa Qur'oni Karimning "Kahf" surasi 60-82 oyatlarida keltiriladi. Bu qissadan ibrat olishimiz zarur bulgan xulosa,

ilmning chegarasi yo'qligi, Muso payg'ambarimiz Alloh bilan gaplashish maqomida bo'lsalarda, barcha ilmga ega bo'la olmaganlari, ilm yo'lida u kishidanda bilimli banda borligi uqtiriladi. "Eng bilimdon inson men bo'lsam kerak" deb o'ylagan Muso payg'ambarimiz, o'zlaridanda bilimdon Xizr alayhissalom bilan uchrashganlari, Xizr alayhissalom yo'l boshchi-ustoz va Muso payg'ambarimiz yo'lovchi-shogird misolida bir qancha manzillarni bosib o'tadilar. Lekin bu yo'ldagi ustozning qilgan ishlariga shogirdning sabr-toqatlari yetmaydi. Ya'ni inson qachonki, barcha ilmlarni egalladim desa, albatta adashadi, chunki bunaka fikr kibrnig a'lomati bo'lishi mumkin. Ilm cheksiz bo'lganligi uchun doimo ilm talabida bo'lish lozimligi xalq maqolida ham ta'kidlangan: "Beshikdan to qabrgacha ilm izla". Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni ustoz-shogirdlik sifatlarini ta'riflashda, ushbu qissani aytib o'tganlari har birimiz uchun yana bir ibratli o'g'itdir.

XULOSA

1. "Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniynig aytganlaridan" risolasi bir qancha boblardan iborat bo'lib, maqolada ustoz-shogird masalalariga oid boblari falsafiy tahlil etildi.

2. Shogird ilm egallashda har qanday holatda ham ustozga muhtoj va uning xizmatini xolis bajarish bilan kamolga yetadi.

3. Shogird ilm egallashi uchun kibru havo qilmasligi va sabr-bardoshli bo'lishi shart.

Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniynig ustoz-shogird munosabatlari haqidagi aytganlaridan shunday umumiy xulosaga kelamizki, sabr-toqat bilan ilmu hunar egallashni komillik sari yo'l deb, komillikni daryoga qiyos etamiz. Ilm ahli irmoqlar orqali daryoga kelib qo'shiladi, komillikka erishadi. Irmoqni yo'lini ochuvchi - ustoz bo'lsa, unda mavjlanib oqayotgan suv – shogirdidir. Agar suv irmoq orqali daryoga bormasa, yer yuziga singib, manziliga yeta olmaydi. Shuning uchun ya'na bir bor ta'kidlaymizki, dunyoda mavjudligimizni sababchisi - aziz ota-onamiz bo'lsa, qadrimizni, kimligimizni anglatgan - mo'tabar ustozlarimiz ekanligini chuqur anglashimiz shart. Zotan, ustozlardan ilm o'rganishimiz va ularni shogirdidan roziligi komillik manziliga eltuvchi yagona yo'ldir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

Қуръони Карим.

1. Шавкат Мирзиёев. Мамлакатимизда таълим-тарбия тизимини такомиллаштириш, илм-фан соҳаси ривожини жадаллаштириш масалалари муҳокамаси буйича видеоселектор йиғилиши. 2 ноябрь 2020 йил.

2. Гулчеҳра Наврӯзова. Абдулхолиқ Ғиждувоний. "Имом Бухорий халқаро маркази" нашриёти Самарқанд 2020. –Б. 72;

3. Ойгул Шарипова. Абдулхолиқ Ғиждувоний. Монография. Бухоро 2020. –Б. 28;

4. Маҳмуд Ҳасаний. Хожа Абдулхолиқ Ғиждувоний. –Т.: "Ўзбекистон", 2003. . –Б 113-115;